

Xizmatlar kórsatilmaganligini yoki sifatsiz xizmatlar kórsatilganligi tuǵrisida dalolatnoma qattiq va/yoki suyuq chiqindilarni olib ketishda xizmatlar uchun tólov miqdorini qayta hisoblash uchun va "IJROChI" tomonidan óz majburiyatlarini buzganlik uchun tólashga asos boladi.

"IJROChI" "BUYURTMACHi" ning hayoti, soǵligi va mol-mulkiga zarar yetkazsa, zarar yetkazilgan fakti qayd etilgan "IJROChI" va "BUYURTMACHi"ning vakillari tomonidan imzolangan dalolatnoma tuziladi.

Agar "IJROChI"ning vakili etib kelmasa, dalolatnomada "BUYURTMACHi" va fuqarolarning ózini ózi boshqarish organi vakilining imzosi kifoya.

"BUYURTMACHi"ning va "IJROChI"ning vakili imzosi mavjud bólsa, dalolatnoma yuridik kuchka ega bólad.

Agar "IJROChI"ning vakili dalolatnomaga imzo qóyishdan bosh tortsa, u holda mazkur dalolatnomani imzolashdan bosh tortish sabablarini kórsatib yozma tushuntirish berishi lozim. Aks holda, "BUYURTMACHi" sud qarori chiqarilgunga qadar QMChni olib ketish xizmatlari uchun pul tólashini tóxtatib turishga haqli.

### 3. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. "IJROChI" shartnoma majburiyatlariga rioya etmaganlik uchun "BUYURTMACHi"ni javobgarlikka tortish choralarni kórishga, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan (jarima yoki penya) tólovni talab qilishga haqli. "IJROChI" qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bólishi mumkin.

#### 3.2. Ijrochining majburiyatlari:

Belgilangan muddatlarda chiqindilarni olib ketishni amalga oshirish:

"BUYURTMACHi"ga qattiq va/yoki suyuq maishiy chiqindilarni olib ketish xizmatlarini qonunchilikda va shartnomada belgilangan tartibda sifatli xizmatini kórsatish;

"BUYURTMACHi"ning sórovlarini qonun yoki shartnomada belgilangan muddatlarda bajarish;

Qattiq va/yoki suyuq maishiy chiqindilarni olib ketish xizmatlari uchun elektron tóloviga shaxsiy hisob holatini Real vaqtda kuzatish tizimini joriy etish;

Qattiq va/yoki suyuq maishiy chiqindilarni olib ketish bóyicha xizmatlar tartibi va sifati bóyicha "BUYURTMACHi"ning shikoyatlari (arizalari, talablari, davolari)ning hisobini yuritish, va ijrosini tamiynlash;

"BUYURTMACHi" buyurtmasiga kóra qurilish chiqindilarini va agrotexnik ishlaridan keyin qolgan chiqindilarni olib ketish bóyicha qóshimcha haq tólangan holda qóshimcha transport xizmatini kórsatish.

Barcha chiqindi yigish punktlari (ChYP) va konteynerlar holati ustidan kuzatuv órnatish va ularning toǵri ishlatish holatini táminlash;

"BUYURTMACHi"ning talabiga binoan QMCh yigish uchun kerakli miqdordagi konteynerlar bilan táminlash;

Chiqindilarning ommaviy tóplanishiga va odamlarning hayoti, soǵligiga va atrof-muhit uchun xavfli bólgan bakteriyalar va boshqa zararli moddalarning rivojlanishiga qarshi kurashish uchun tizimli ish olib borish (konteynerlarni dezinfeksiya qilish yoki yuvish, axlat yigish nuqtalari va boshqalar.);

Hosil bólgan chiqindilarni xisob-kitobini yuritish;

Belgilangan tartibda saralangan maishiy chiqindilarni xom-ashyo qabul qilish uchun ixtisoslashtirilgan korxonalariga yetkazib berishni táminlash;

Qattiq va/yoki suyuq maishiy chiqindilarni olib ketish bóyicha tariflarda va xizmatlar taqdim yetish tartibidagi ózgarishlar haqida kuchga kirishidan 15 kun oldin ommaviy axborot vositalari orqali va "IJROChI"ning abonent punktlarida xabar reklamalarni osib qóyish orqali "BUYURTMACHi"ga xabar berish;

"BUYURTMACHi"ga taqdim etilayotgan xizmatlar sifatining buzilishini oldini olish va bartaraf yetish chora-tadbirlarini kórish;

Istamolchiga maishiy chiqindilarni olib ketish xizmatlari uchun tólovlarning holati haqida bepul málumot berish, shuningdek kórsatilgan xizmatlar uchun haq tólashda boqimandalik yóqligi haqida málumot berish;

SanPiN RUZ#0297-11 muvofiq konteynerlar dezinfeksiyasini amalga oshirish.

#### 3.3. "BUYURTMACHi"ning huquqlari:

Mol-mulkiga zarar yetkazmasdan, uning hayoti va soǵligi uchun xavfsiz, belgilangan sifatda, zarur hajmda xizmatlar olish;

"IJROChI" (KR «Toza xudud» DUK filiallari) aybi bilan xizmat kórsatishdagi kamchiliklarni óz hisobidan bartaraf yetishni va (jarima yoki penya) tólashni talab qilish;

"IJROChI"dan (KR «Toza xudud» DUK filiallari) qattiq va suyuq chiqindilarni olib ketish uchun xizmatlar hajmi va sifati, xizmatlar kórsatish shartlari, kommunal va tólov uchun tólov ólchamlari haqida málumot olish, shuningdek, elektron tólov tizimi